



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 22-avgust, seshanba,
100 (23.821)-son

**KUN
HIKMATI**
Vaziyatni
bilib - mahorat,
undan xulosa
chiqara olish esa
oqillikdir

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!



MAKTABNING MAVQEYI – MUALLIMDA

Samarqandda II Ustozlar milliy forumi bo'lib o'tdi

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida "Sifatli ta'lum – kuchli jamiyat" shiori ostida Ustozlar milliy forumi tashkil etildi. Forumda viloyat maktabgacha va maktab ta'lumi boshqarmasi tasarrufidagi muassasalar direktori, xalq ta'limi a'lochilar, ilg'or va tajribali pedagoglar qatnashdi.

Ta'kidlash joizki, har yili an'anaviy tarzda nishonlanadigan avgust kengashlari endi Ustozlar milliy forumiga aylangan.

Forunning ochilish marosimida so'zga chiqqan viloyat hokimi Erkinjon Turdimov barcha pedagoglarni davlatimiz mustaqilligining 32 yilligi bilan tabrikadi.

- Xabarizingiz bor, biz ikkinchi marta Ustozlar milliy formumini o'tkazayapmiz. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, har bir rejamiz, harakatimiz pirovvardida ta'lum sifatining oshishiga, uning nati-jadorigini ta'minlashga qaratilish, - dedi viloyat hokimi. - Forumda ana shu boradagi vazifalarini aniqlash, belgilash hamda ijrosini ta'minlash chorasi ko'rish uchun, aniqrog'i, yuzma-yuz, samimiy, xolisona muloqot qilish uchun sizlarni ushu anjunmanga taklif etdik.

Ochig'in aytsam, ustoz, mahrabbiy qalbi ohanrabodek, kishi e'tiborini o'ziga doimo tortib turadi. Ana shu mehrdan o'z vaqtida bahramand bo'lganligim uchun ham uning qadriga yetaman. Va sizardek fidoyi, bilimdon, zukko, mehribon ustozlar oldida doimo ta'zimdam.

Davlat yangi maktablar qurish, esklarini ta'mirlash, ularni zamonaviy texnologiya bilan jihozlash, o'qituvchi manfaatdorligini oshirishga alohida e'tibor bermoqda. Buni sizlar ham ko'rib, bilib turibsizlar. Ayniqsa, iqtidorli, tashabbuskor o'qituvchini rag'batlantrish yaxshi samara beryapti. Bugungi kunda viloyat bo'yicha 162 nafar o'qituvchi har oyda oylik maoshidan tash-

qari 5,5 million so'mdan ustama olyapti. Chunki ular shogirdlarining aksariyati oliv o'quv yurtlari ga talabalikka qabul qilingan, olimpiadalar, hatto xalqaro fan olimpiadalarida g'olib yoki sovindor bo'lgan. Quvonchimiz shuki, bunday o'quvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Forumda so'zga chiqqan viloyat maktabgacha va maktab ta'lumi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Shokir Sultanov o'tgan o'quv yilida erishigan yutuqlar, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar, ta'lum tizimidagi islohotlar, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik masatalariga to'xtalib o'tdi.

Xususan, viloyat maktablariga Rossiya Federasiyasidagi 13 nafar, Amerika Qo'shma Shtatlaridan 2 nafar, Singapur davlatidan 3 nafar, Germaniya davlatidan 3 nafar xorijiy mutaxassislar jahb etilib, o'quv yili davomida o'qituvchilar bilan o'zaro tajriba almashish ishlari amalga oshirildi.

Viloyatimizning eng chekka hududlaridagi maktablarda kadrlar muammosini bartaraf etish maqsadida viloyat hokimligining tashabbusi bilan ois hududlardagi 63 ta maktabga 310 nafar o'qituvchi boshqa hududlardan jahb qilindi. Ularga mahalliy budget mablag'lari hisobidan bir marta lik boshlang'ich yordam va uy-joylarning ijarasini uchun 4 milliard 439 million so'm to'lab berildi.

Joriy yilda 9-sinf bitiruvchilarining 3845 nafari a'lo darajali shahodatnomaga ega bo'ldi. Shuningdek, 11-sinf bitiruvchilarining 1601 nafariga oltin va 172 nafariga kumush medallar topshirildi.

2022-2023-o'quv yilida maktab bitiruvchilarining 1238 nafari muddatidan oldin talabalar safiga qabul qilindi. Ulardan TOP-1000 talikha kirgan olyi ta'lum muassasalariga 472 nafar o'quvchi o'qishga kirdi.

Tadbirda sohadagi eng muhim vazifalar muhokama qilindi. Forum so'ngida bir guruh ilg'or pedagoglar taqdirlandi.

Xurshida ERNAZAROVA,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

OQQO'RGIN – "OBOD MAHALLA"

Mamlakatda kechayotgan islohotlar natijasini olis qishloq va ovullarda yashovchi aholi ham his qilishi, hayotida o'zgarish bo'lishi lozim. Odamlar ertaga emas, bugundan yaxshi yashashi, ertangi kunidan ko'ngli to'q bo'lishi va doimo davlatning e'tiborida ekanligini sezishi kerak.



Ayni paytda Payariq tumani-dagi Oqqo'rgin va Sorisuv mahallalarida "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish, infratuzilmani yaxshilash va og'ir hudud toifasidan chiqarish, aholi bandilgini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlardan ko'zlangan maqsad ham shu aslida.

Dastlab respublika ishchi guruh tomonidan hududda olib borilgan o'rganish, xatlov asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilanib, 42 banddan iborat "Yo'l xaritas" ishlab chiqildi va qisqa vaqt ichida 8 band ijrosi ta'minlandi.

Bugungi kunda Oqqo'rgon-da Prezident Administratsiyasi, Samarqand viloyati va Payariq tumani

hokimliklari, Xalq qabulxonasi va boshqa tashkilotlar vakillaridan iborat shtab belgilangan ishlarning o'z vaqtida va sifatlari ijro etilishini muvofigqlashtirib bormoqda, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Samarqand viloyatidagi Xalq qabulxonasi mudiri Mamatjon Turdiyev. - Shu payt-gacha mahallalardagi 3,6 kilometr asosiy yo'l to'liq asfalt qoplamasi bilan qoplandi. 3 kilometrdan ortiq 12 ta ichki ko'chaga shag'al yetqizilib, tekislandi. Markaziy ko'chalarda 500 metrdan ortiq piyodalar yo'laklari qurilyapti, tungi yoritish chiroqlari o'rnatalmoqda.

Hudud aholisining elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida yaroqsiz simyog'ochlar o'rniда 480 ta ta'yanch beton ustun o'rnatish, 3 ta qo'shimcha transformator qo'yish, 70 dona yuqori kuchlanishli havo tarmog'i va

10,2 kilometr SIP kabel tarmog'i tortish rejalashtirilgan. Hozirgacha Oqqo'rgon'dagi 52 ta eski simyog'ochlar yangi temir-beton ustunlarga almashtirildi. Besh-ta transformator punkti kapital ta'mirlandi. Sorisuvda esa 28 dona simyog'och almashtirilib, 7 ta transformatororda ta'mirlash ishlari olib borildi. Shunga mos tarzda havo tarmoqlari tortildi. Mahallalardagi aholi xonadonlari ga qo'shimcha 30 dona suyutirilgan gaz ballonlari yetkazib berildi. 84-umumiy o'rta ta'lum maktabida 8 ta sinfxona polini almashirish, sportzalni ta'mirlash ishlari belgilanib, ayni paytda bu ishlar yakuniga yetkazilmoqda. Maktabga qarashli stadion hududida suv nasosi o'rnatilib, foydalanishga topshirildi.

(Davomi 2-sahifada) >>>



1991-yilda viloyatimiz bo'yicha 119,3 ming hektar lalmi va suvli maydonda g'alla yetishtirilib, 136 ming tonna yalpi hosil olingan, suvli maydonda o'rtacha hosildorlik 17 sentnerni tashkil etgan bolsa, 2023-yilda 94 ming 230 hektar yerdagi g'alla yetishtirildi va 723 ming tonna yalpi hosil olindi.

Suvli maydonning har gektaridan olingan o'rtacha hosildorlik 73,8 sentnerni tashkil etdi.



Munosabat

Prezident ishonchi bizga kuch berdi

Respublikamizda aholi soni o'sib borishi bilan elektr energiyasiga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. O'tgan asrning 60-70-yillarda o'rnatilgan elektr taqsimlash uskunalar esa xizmat muddatini o'tab bo'lgan, ko'p elektr yo'qotishlariga olib keladi. Transformatorlarni yangilash uchun xorijdan valyuta hisobiga yangi uskunalar keltirilayapti, buning uchun juda katta miqdorda mablag' sarflanadi.

Buning maqbul yechimi sifatida import o'rnini bosuvchi transformatori o'zimizda ishlab chiqarishni tashkil etish lozim edi. Shu maqsadda tumanimizda "Kattaqo'r'ga elektronika" zavodi qisqa muddatda zavod faoliyatini o'lg'a qo'yilib, mahsulot ishlab chiqarishni boshladi. O'tkazilgan sinovlar, standartlar, xalqaro talablariga muvofigqlik tekshiruvlaridan so'ng mahsulotlarimiz ishonchi va import o'rnini bosuvchi raqobatdosh mahsulot ekanligi tasdiqlandi.

Ish boshlaganimizga ko'p vaqt bo'lgan bo'lsada, mahsulotlari misliga ichki va tashqi bozorda talab yuqori. Korxonamizning yillik qavvati 1200 dona TNG import o'rnini bosuvchi transformatorlar ishlab



bu yil 10 hektar maydondagagi tok hosilga kirdi.

O'limizdan kelgancha tumandagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga ko'mak ko'rsataymiz, tumanning ijtimoiy hayotida ham faol qatnashamiz. Asosiyasi, bildirilgan ishonchni oqlashga, odamlarimiz og'irini yengil qilishga, shu orgali yurt rivojiga hissa qo'shishga intilyapmiz.

Xalqaro kongress markazida Prezidentimizning tadbirkorlar bilan

ochiq muloqotining avvalida mukofotlar topshirildi. Korxonani bugungi darajaga yetishi, mahsulot sifatini ta'minlash, malakali ishchilarini tanlash, raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishdagi va boshqa barcha qiyinchiliklar shu bir lahzada unut bo'lib ketdi.

Davlatimiz rahbarining shaxsan o'zidan mukofot olib o'zgacha motivatsiya, o'zimga katta ishonch berdi. Prezidentim menga "Shuhrat" medallini topshirarkan, "Anvar, bu soha bizga kerak, endi yanada ko'proq yangilik qilishing, o'z ustingda ko'proq ishlashing kerak", dedilar.

Korxonamiz va mahsulotlarimiz davlatimiz rahbarining e'tiboriga tushgani va bizga yuksak ishonch bildirilgani barcha ishchilarimizni ruhlantirib yubordi. Biz bu mukofotdan ilhomlanib, g'ayrat bilan yuqori sifatlari va ichki bozor ehtiyojlari ta'minlaydigan mahsulot ishlab chiqarishni yanada oshirish harakatidamiz.

Anvar NORBOEV,
Kattaqo'r'ga tumanidagi
"Kattaqo'r'ga elektronika
zavodi" direktori.

Yeti oyda davlat budgetiga 1,7 trillion so'm bojxona to'lovlari undirildi

Bu haqda viloyat Matbuot uyida viloyat bojxona boshqarmasi xodimlari bilan o'tkazilgan matbuot anjumanida aytildi.

Unda viloyat bojxona boshqarmasi boshlig'i o'rinosari Anvar Muhammadiyev joriy yilning 7 oyi davomida viloyat bojxona boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida axborot berdi.

- Keyingi yillarda davlat budgetiga kelib tushayotgan bojxona to'lovlari hajmi sezilarini darajada o'syapti, - dedi A.Muhammadiyev. - Masalan, 2023-yil yanvar-iyul oylarida davlat budgetiga undirilgan bojxona to'lovlari 1,7 trillion so'mni tashkil etdi. Taqoslash uchun qaralsa, o'tgan 2022-yil yanvar-iyul oylarida bojxona tushumlari 1,3 trillion so'mni tashkil etgan.

Anjuman davomida jurnalistlar mavzuga doir o'zlarini qiziqirtigan savollarga batafsil javob oldi.

O'z muxbirimiz.

OQQO'RG'ON – "OBOD MAHALLA"

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Ikkala mahalla hududidan o'tgan 4,2 kilometr ariq va zovurlar tozalandi. 44-davlat maktabgacha ta'ilim tashkilotiga 21-oilaviy shifokorlik punktiga 5 kilovatli, 84-maktabga 10 kilovatli quyos panellari o'nataldi. Aholining lab va istaklari asosida Sorisuv mahallasida joylashgan Uzmobile va Ucell kompaniyalariga qarashli mobil uyalni aloqa ustunlari va aloqa tizimi ta'mirlanib, aloqa sifati yaxshilandi. Internet ta'minoti uchun Oqqo'rg'on mahallasining Langar, Langar-1, Balandqo'rg'on, Po'latchi, Yonariq, Saroyqo'rg'on, Qiyot va Qo'rg'oncha ko'chalariga 4 kilometr kabel tortildi. Bu boradagi ishlar Sorisuv mahallasida davom etmoqda.

Aholi bandligini ta'minlash, yoshlari va xotin-qizlarni kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida 5-avgust kuni hududda bo'sh ish o'rinnari mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Unda 123 ta korxona, tashkilot, muassasa va fermer xo'jaliklari tomonidan 1200 dan ortiq bo'sh ish o'rinnari taklif etildi. Yarmarkada qatnashgan 260 ga yaqin fuqaroning 34 nafari o'zi-ga munosib ishga joylashdi. 23 nafar fuqaro kasb-hunarga o'qish uchun yo'llanma oldi. Shuningdek, 2 nafar fuqaroning har biriga 33 million so'mdan imtirozi kredit olishi uchun tavsiyanoma berildi.

Sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, sportning ommaviyiligini oshirish va aholini tibbiy ko'rnikdan o'tkazish ham "Yo'l xaritasi"da belgilangan. Shundan kelib chiqib, shu paytgacha 2500 nafardan ortiq fuqaro chququrlashtirilgan tibbiy ko'rnikdan o'tkazildi va uning natijasiga ko'ra, 488 nafar bemor-ga ambulator sharoitda davola-

nishga tavsya berildi, 192 nafar bemor tuman va viloyat tibbiyot muassasalarida davolanish uchun yo'llanma oldi. 2 nafar bemorda yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

– Salomatik o'zimizga kerak bo'lsa ham vaqt topib, tuman markazi yoki viloyatga borib, tibbiy ko'rnikdan o'tishga haf-sala qilmaymiz, – deydi Oqqo'rg'on mahallasida yashovchi



Xubbimtosh Donaboyeva. – Hududimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayonida Samar-qanddan malakali shifokorlar kelib, aholini tibbiy ko'rnikdan o'tkazdi. Bir nechta apparatlariga tushdik, kasallik aniqlansa, zarur tavsiyalar berishdi. Ayrimlar shifoxonalarga borib, bepul davolanib kelyapti. Davlatning o'z fuqarolariga e'tibori, g'amxo'rliqi bundan ortiq bo'limsaga kerak. Hammamiz mahallamizdagi o'zgarishlardan, obodlikdan xursandmiz.

Hududni obod qilishda aholi xonadonlari ham e'tibordan chet-

lishi bilan birga, xizmat ko'rsatish shoxobchalari, tikuvi sexi tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Mahallamizda 19 oila "Temir daftar"ga, 67 nafar xotin-qiz "Ayollar daftari"ga, 7 nafar yosh "Yoshlar daftari"ga kiritilgan edi. Shu paytgacha bu "Temir daftari"dagi 3 ta oilage, "Ayollar daftari"dagi 13 nafar opa-singillarimizga, "Yoshlar daftari"ga 4 nafar yigit-qizga yordam ko'rsatilib, ishlatib, darodom topishi mumkin bo'lgan asbob-uskunalar berildi. Nogironligi bo'lgan 4 nafar fuqaroga aravacha va 3 nafariga reabilitatsiya vositalari yetkazildi.

Mutasaddilarning aytishicha, Oqqo'rg'on va Sorisuvdagagi bungyodkorlik, obodonlashtirish ishlarini Mustaqillik bayramiga qadar yakunlash ko'zda tutilgan. Demak, hudud aholisi Vatanimiz mustaqililingining 32 yillik bayramini yangicha ko'rinishga kelgan mahallada, xonadonda nishonlaydi.

G'.HASANOV,
A.ISROILOV (surat).

da qolgan emas. Har bir turarjoy va uning atrofidagi holat o'rganigan holda homiyalar ko'magida ta'mirlash, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish belgilangan. Hozirda aksariyat uy-joylarni joriy ta'mirlash ishlari niyoyasiga yetkazildi. Ehtiyojmand oilalarning uylarini reconstruksiya qilish, qo'shimcha binolar qurish ishlari davom etmoqda.

– Shu paytgacha mahalla idorasiga ega emas edik, – deydi Oqqo'rg'on mahallasi raisi Furqat Xolmurodov. – "Obod mahalla", "Obod xonadon", "Obod ko'cha" me-zoni asosida hududda amalgi ishlar boshlan-gach, mahalla markazi uchun joy tanlanib, qurilish ishlari boshlandi. Bu yerda mahalla fuqarolar yig'ini uchun sharoit yaratilishi ko'zda tutilgan.

E'lon qilingan tanlovarda ishtiroy etish uchun 30858 nafar nomzod ariza topshirgan bo'lib, bir vakant lavozimiga o'rtaча 20 nomzod to'g'ri keldi. Tanlova ishtiroy etish istagini bildirgan va lavozim uchun belgilangan malaka talabalariga mos deb topilgan 12557 nafar nomzodning bilimi test. argos.uz orqali sinovdan o'tkazilib, belgilangan balni qo'iga kiritgan 3231 nafar nomzod suhabat bosqichida qatnashdi.

O'tkazilan tanlovlar bo'yicha aniqlangan g'oliblarining (jam'i 407 nafar) 144 nafari 30 yosh-gacha bo'lganlar, 28 nafari davlat xizmatiga ilk marotoba qabul qilinganlari tashkil etdi. Tanlov g'oliblarining 354 nafari erkaklar, 53 nafari ayol-lardan iborat.

Umuman, agentlikning viloyat filiali tomonidan tanlovlar belgilangan talablar asosida o'tkazilishi usidan nazorat o'natalgan. Jumladan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga

Kun mavzusi

2023-yil 22-avgust,
seshanba

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasida davlat fuqarolik xizmatiga kirish tanlov asosida bo'lishi, 29-moddasida davlat fuqarolik xizmatining bo'sh turgan (vakant) lavozimini egallash maxsus vakolatlari davlat organi (Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi)ning axborot tizimi - vacancy.argos.uz portali orqali o'tkaziladigan tanlovlar asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Davlat xizmatiga tanlov orqali ishga olinadi

Aksincha holat qonunbuzarlik hisoblanadi va tegishli chora ko'rildi

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldag'i "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, 2021-yil 1-sentabrdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonalarini va muassasalarini, davlat ulushi 50 foizidan yuqori tashkilotlarda ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmogi'ni orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etilishi belgilangan.

Mazkur qonun va qaror talablaridan kelib chiqib, viloyatimizda joriy yilning 10-yanvar – 10-avgust holatida Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portali – vacancy. argos.uz orqali 1431 ta tanlov e'lon qilinib, tegishli rasmiy telegram kanallarida yoritildi.

E'lon qilingan tanlovarda ishtiroy etish uchun 30858 nafar nomzod ariza topshirgan bo'lib, bir vakant lavozimiga o'rtaча 20 nomzod to'g'ri keldi.

Tanlova ishtiroy etish istagini bildirgan va lavozim uchun belgilangan malaka talabalariga mos deb topilgan 12557 nafar nomzodning bilimi test. argos.uz orqali sinovdan o'tkazilib, belgilangan balni qo'iga kiritgan 3231 nafar nomzod suhabat bosqichida qatnashdi.

O'tkazilan tanlovlar bo'yicha aniqlangan g'oliblarining (jam'i 407 nafar) 144 nafari 30 yosh-gacha bo'lganlar, 28 nafari davlat xizmatiga ilk marotoba qabul qilinganlari tashkil etdi. Tanlov g'oliblarining 354 nafari erkaklar, 53 nafari ayol-lardan iborat.

Umuman, agentlikning viloyat filiali tomonidan tanlovlar belgilangan talablar asosida o'tkazilishi usidan nazorat o'natalgan. Jumladan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga

asosan, joriy yilning shu kuniga qadar 13 marta monitoring ishlari olib borildi hamda 22 holatda tanlov o'tkazish tartiblari qo'pol ravishda buzilganligi aniqlandi. Yo'l qo'yilgan qonun buzilishi holatlar bo'yicha viloyat boshqarmalari hamda mahalliy hokimliklarga 13 ta taqdimnomma, 7 ta ogohlantirish, 5 ta ma'muriy taklif kiritildi.

Shu orqali aniqlangan barcha qonunbuzilish holatlarini bartaraf etilib, viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi tizimida 9 nafar, Qo'shrabot tumanı hokimligida 6 nafar, oila va xotin-qizlar boshqarmasi tizimida 4 nafar, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiysi, avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi hamda yoshlari agentligi tizimida 1 nafaradan tanlovsiz (tanlov g'olibli aniqlanguniga qadar vazifasini bajaruvchi qilib) ishga qabul qilingan xodimlar egalib turgan lavozimidan ozod etildi.

Qayd etish lozim, davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlarning hududiy boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlaridagi ma'muriyat lavozimlariga xodimlarning tanlovlaris, to'g'ridan-to'g'ri tayinlanishi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun hamda Prezidentning "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori talablarining buzilishi deb baholanadi.

Shu bois yuqorida qayd qilingan qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan kadrlar ishiga mas'ul bo'lgan xodimlardan 1 nafari egallab turgan lavozimidan ozod etildi, 3 nafariga "hayfsan" intizomiy chorasi, yana 2 nafar tashkilot rahbariga nisbatan ma'muriy jarima qo'llanadi.

Foziljon AXATOV,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
viloyat filiali bosh inspektori.

ALIMENT to'lov qilinsa, tugaydigan majburiyat

Majburiy ijob byurosining viloyat boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari ish yurituvida bolalarining moddiy ta'minoti va aliment undiruviga bilan bog'liq 35 mingga yaqin ijobi hujjati mavjud. Shundan 5 mingdan ortiq hujjat joriy yilning o'tgan davrida tamomlangan.

Xususan, voyaga yetmaganlar foydasiga 141,6 milliard so'm miqdoridagi aliment qarzdorligi undirilgan.

Shuningdek, olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida 4498 olla yarashtirilgan. Ishsiz aliment to'lovchi qarzdorlardan 3358 nafarining bandligi ta'minlandi.

Aliment to'lashdan bo'yin tovlab kelgan 749 nafar qarzdor shaxsiga nisbatan sudlar tomonidan ma'muriy qamoq jazosi qo'llanildi. Bundan xulosa chiqarmay, aliment to'lashdan bo'yin tovlagan 111 nafar qarzdorga nisbatan Jinoyat kodeksining 122-moddasida bilan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Voyaga yetmagan farzandiga aliment to'lamaganligi uchun jinoyat javobgarlikka tortilgan shaxslarning aliment qarzdorliklari Majburiy ijob byurosini huzuridagi jamg'arma mablag'lari hisobidan qoqlamoqda. Joriy yilning o'tgan davrida mazkur amaliyot orqali 95 ta ish bo'yicha bolalar foydasiga 781,4 million so'mdan ortiq aliment qarzdorliklari to'lab berildi.

Rifat BO'RIVEV,
MIB viloyat boshqarmasi
bo'lim inspektori.

"QIZIL" dan "YASHIL" ga O'TISH UCHUN...



yillarda joylarda aholining ijtimoiy faoliyoti, qonunbuzarlikka qarshi murosasiz munosuba shakllanib bormoqda. Ya'ni, jinoyatchilikning oldini olishdash faqat mahalla faollari emas, balki fuqarolar ham mas'uliyatni his qilmoqda.

Mahallalardagi jinoyatchilik ko'rsatkichi-hi hududlar kesimida tahsil qilsak, birinchi yarim yillik eng ko'p jinoyat Samar-qand shahri hududiga (215 ta mahalladan 108 tasida) to'g'ri kelmoqda. Bu, albatta, shaharda mahallalar hamda aholi sonining ko'pligi bilan bog'liq. Misol uchun, foizlar hisobida Oqdaryodagi kriminogen vaziyat Samarqand shahrinidan anchha yomonligini ko'rish mumkin. Sababi, tumanda bor-yo'g'i 35 ta mahalla bo'la turib, shundan 22 tasida, ya'ni 63 foizida jinoyat qayd etilgan. Eng past ko'rsatkichi Qo'shrabotda. Bu yerda 45 ta mahallaning 15 tasi (33,3 foiz)da qonunbuzarlik ro'yxtiga olinan. Ammo fakt baribir faktligicha qoladi, Samarqand shahri jinoyatlar soni bo'yicha lider. Ayni vaqtida undagi 39 ta mahalla "qizil", 69 tasi "sariq" toifaga kiradi.

— Shaharda jinoyatchilikka qarshi kurashishda zamoniaviy texnologiyalar imkoniyatlardan ham foydalnilmoqda, – deydi Samarqand shahri bo'yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvoqilaqshanti-

rish boshqarmasi HPB boshlig'i M.Urusov. – Jumladan, aholi gavjum joylarning 70 foizi kameralashtirilib, yagona kuzatmoga qabul qilinguning qadar profilaktika inspektorining yordamchisi bo'lib ishlaganimda to'plagan tajribam asqotdi. Ayni amaliyot bilan mahalla beshligining har biri qaysi yo'nalishdash va kimlar bilan ishlashi kerakligini aniqlab oldik, ishimiz osonsolashdi. Masalan, notinch oildagi muhitni faqat er-xotin bilan profilaktik suhabat o'tkazish orqali yaxshilab bo'lmaydi. Odatda oildagi nizo yetishmochvili yoki undagi ba'zi a'zolarning bekorchiligi sababli kelib chiqadi. Shunda hokim yordamchisi va xotin-qizlar faolining yordami kerak bo'la-di. O'tgan davrida 13 nafar fuqaroni shu tartibda ish bilan ta'minladik.

Inspektor tunda ham faol. Viloyat IIB yo'l-patru xizmati va jinoyat qidiruv bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan turli reyd tadbirlaridan tashqari, u o'z yordamchisi bilan ko'chalarini aylanib, aholining halovatini ta'minlaydi. Uning ayitischa, keyingi vaqtida fuqarolar tomonidan avtoulovini ko'chada, qulflamasdan qoldirib ketish holatlari ko'paygan. Bunday vaziyatda soat necha bo'lishidan qat'i nazar, avtomobil egasi topilishi, jinoyatning oldi olinishi kerak. Bundan tashqari, yarim tunda ko'chada yurgan shubhalni fuqarolar bilan ham suhabat o'tkazilib, muddaosi aniqlashtiriladi. Bosh maqsad - mahalla ahlining tinchligini saqlash.

Asqar BAROTOV.

MALAYZIYA TERENGGANU UNIVERSITETI: KECHA VA BUGUN

Malayziya Terengganu universiteti davlat notijorat ta'lif muassasasi hisoblanadi. Universitet Malayziyaning Kuala Terengganu shahrida joylashgan bo'lib, 1979-yilda tashkil etilgan. Avvaliga, universitet Malayziya dengiz instituti, Janubi-Sharqi Osiyo baliqchilikni rivojlantirish markazi deb nomlangan.

Universitetda fan va dengiz muhiti, okean muhandislik texnologiyasi va informatika, baliqchilik va oziq-ovqat fanlari, biznes, iqtisod va ijtimoiy rivojlanish, dengizshunoslik kabi fakultetlar mavjud.

- Universitetimizda yuqorida nomlari keltirilgan fakultetlar bilan bir qatorda arxitektura va qurilish, biznes va boshqaruvi, tabiiy fanlar, jurnalistikva ijtimoiy fanlar, muhandislik, kompyuter fanlari, biznes boshqaruvu magistr, tibbiyot va sog'liq, pedagogika, qishloq xo'jaligi va veterinariya, turizm va mehmondo'stlik yo'nalişlariada ham yoshlar ta'lif olishadi, - deydi universitet prorektori, professor Muhammad Zamri Bin Ibrahim.

Talabalar shaharchasida turarjoy, ta'lif muassasari va barcha qulayliklarga ega bo'lgan piyodalar uchun yo'laklar joylashgan. Har bir turarjoy talabalar identifikatori yordamida kirish nazorati bilan himoyalangan. Bundan tashqari, talabalar va xodimlarning xavfsizligini kuzatish uchun qo'rqliklar va kuzatuv kameralari mavjud.

Malayziya Terengganu universitetining akademik taqimi uch semestridan iborat. Qulaylik uchun o'qitishning umumiy qiymati yiliga hisoblanadi. Ta'lif muassasasidagi narxlar fuqaroligiga qarab



o'zgaradi. Malayziya talabalari uchun bir yillik o'qish narxi 220 AQSH dollaridan, chet elliklar uchun esa kamida 2500 AQSH dollaridan boshlanadi. Moliyaviy yordam dasturlari tufayli talabalar ta'lif xarajatlarini to'liq yoki qisman qoplash imkoniyatiga ega.

Abdug'ofur HOTAMOV,
TATU Samarqand filiali
dotsenti.

Yong'in nazorat qilib bo'lmaydigan yonish jarayoni bo'lib, har birimizdan xavfsizlik qoidalariiga amal qilishni talab etadi. Butun dunyo statistika markazi (CTIF) ma'lumotlariга ko'ra, jahonda soatiga o'rtacha 1000 ta, bir daqiqada esa 17 ta yong'in sodir bo'ladi. Yong'inlar oqibatida bir soatda o'rtacha 10 nafar, har 100 ta yong'inda 1 nafar inson halok bo'lishi holati kuzatilmoqda.

Bolaga gugurt bermang!

Yong'inlarning yuzaga kelishi-da aksariyat hollarda fuqarolarning beparvoligi va uyda yolg'iz qoldirilgan yozh bolalarning o'yngaroqligi sabab bo'imoqda. Yong'inda ishtirok etgan yoki halok bo'igan bolalar asosan 4-8 yoshni tashkil etadi. Xususan, joriy yilning o'tgan davrida viloyatda 523 holatda yong'in sodir etilgan bo'lib, ularning 24 tasi bolalarni uyda yolg'iz qoldirish oqibatida yuzaga kelgan.

Shuning uchun, uyda yonuvchan qurilmalarni bolalar qo'li yetmay-digan joyda saqlash, o'zingiz namuna bo'igan holda elektr jihozlarini, ayniqsa, kichik jihozlar (dazmol, fen, qahva qaynatkich, elektr choynak va boshqalar)ni qanday o'chirib-yoqishni ko'rsatish maqsadga muvofiq. Timur SATTOROV, viloyat favquloddha vaziyatlar boshqarmasi yong'in texnik markazi inspektor.

Bobomning hovlisi oldida Jo'yiariq (chuqur ariq) bor edi. U kishi doim bu ariq atrofini tozalab qo'yar, yalpizlar o'sardi. Esimda, ariq enli, chuqur, suvi esa tez oqardi. Biz bu suvdan ichardik, onam yopgan issiq kulchalarni shu suvgaga botirib yerdik. Hech qachon shu suvdan ichib, kasal bo'Imaganmiz.

Suvimiz qimmatmi?

BIZ UNING QADRIGA YETYAPMIZMI?

Saraton kunlari onam chorpoya-da o'tirib, "Bolam, Jo'yiariqdan do'lcha (sariq rangdag'i, metal-dan yasalgan, ustiga qopqog'i bor, chamasi 4 litrlar suv ketadigan idish)ni to'ldirib keltirg'in", der edi. Keyin suvni tindirib, piyolada olib ichardi.

Shu ariq suviga cho'mil-gan odamning tanasi va terisi ham orom olardi. Ba'zi teri kasalliklari uchun shifobaxsh edi. Har yili odamlar hashar qilib, ariqni qazishardi.

1993-yillarda qadar ariq suvini qay-natmasdan iste'mol qildik. Keyinchalik ariqqa odamlar tonomidan yelim idish va xalta tashlash, ba'zida oqova oqizib qo'yish holatlari uchradir. Bu-bu ariq anch'a toraygan, sayoz va suvini ichib bo'lmaydi, odamlar hatto qo'l yuvrmaydi.

Bobom bizga "Suvga tupurmanglar, suvni ifloslantirmanglar, bu - uvol", derdi. Endi esa uvol va savobni unutgandekmiz, suvning qadrini his-qilmayapmiz.

Bugun suv sathi pasaymoqda, ko'llar, orollar qurimoqda. Odamlar suvni sotib olib ichayotgan yoki suvsizlikdan aziyat chekayotgan bir paytda, ba'zilar mashinasini ichimlik suvini oqizib qo'yib yuvyapti, hovlisiga, ko'chaga shu suvdan sepyapti, ekinlarini sur'ormoqda.

Endilikda, jo'mrakdan kelayotgan suvni ichsang ham kasal bo'lishing mumkin. Qaynatsang, idishning tagida turli cho'kindilar tosh bo'lib qotmoqda.

Qariyb o'n yillardan buyon suvni muzlatkichda muzlatib, so'ngra eritib ichamiz. Erigan suv ostida turli cho'kindilar borligini ko'raman. Tajribamiz shuni ko'rsatmoqda, 5 litr suv tarkibidan qariyb yarim piyola miqdorida 20, 40 gramdan ortiq cho'kima (xlor, quvurning zangi, qum zarralar yoki bakteriyalar) hosil bo'ladi.

Ilgarilar har bir mahallada hashar yo'li bi-

lan qazilgan hovuzlar bo'lardi. Hovuz atrofi o'ralmagan bo'lsa ham hech kim cho'milmasdi, suvni iflos-lantirmasdi. Hozir mahallalarda hovuzlar deyarli yo'qolib ketdi.

Ayni kunlarda elektr energiyasi tanqisligining oldini olish uchun muqobil energiyadan foydalish uchun islohotlarni amalga oshiraymiz. Elektrsiz yashash mumkindir, ammo suv-siz yashab bo'lmaydi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, ekologik uylarda yomg'ir suvlari uyning maxsus hovuzlarida jamg'ariladi. Filtrdan o'tkazilib, iste'mol uchun ishlataladi.

Biz ham bir nechta ko'p qavatlari uylar atrofida yomg'ir suvlarini jamg'arish mexanizmini ishlab chiqsak bo'lmaydim.

Hududlarning relifi bir xil emas. Ayniqsa, chuqur hududlarda yomg'ir suvlar to'planib, aholining yashash joylariga ham zarar keltirmoqda. Nega shu joylarga suv jamg'ariladigan hovuzlar barpo etilmaydi.

Ilgarilar odamlar cho'milish uchun bir yoki ikki chelak (10-20 litr) suv ishlatgan bo'lsa, hozir van-nani taxminan 100 litr suvga to'ldirib, cho'milamiz. So'n yana dush qabul qilinadi.

Basseynlar, saunalardacha esa tonnalab suv isrof qilinmoqda.

Taklifimiz – xonardonlardagi ichimlik suv tar-moqlari uchun hisoblagichdan tashqari hammom, hojatxona uchun maxsus hisoblagichlar o'rnatib, ishlitilgan suvning narxini qimmatroq tarifa belgilash lozim.

Nazarimda, suvning narxi oshirilishi bilan iste'mol madaniyati ham sekin-asta izga tusha boradi. Qolaversa, suv resurslari tejalishiga olib keladi.

Ammo fuqarolarning suvga munosabati o'zgar-masa, barcha harakatlar samarasini sezilmaydi.

Yusufjon SALIMOV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / GAZETAMIZ HAFTADA UCH MARTA - SESHANBA, PAYSHANBA VA SHANBA KUNLARI CHOP ETILADI / GAZETADA CHOP ETILAYOTGAN REKLAMA VA E'LONLAR TEZKOR, SAMARALI VA HAMYONBOP / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56



Mamlakatimizda iqtisodiyotning o'sishi, energiya iste'moliga bo'lgan talabning or-tishi o'z-o'zidan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalish masalasini davlat siyo-sati darajasiga olib chiqdi. Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldag'i "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jedallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bu borada muhim das-turul-amal bo'imoqda.



Qarorga ko'ra, joriy yilda ijtimoiy soha va davlat idoralarida 220 megavatt quvvatlari quyosh panelari o'rnatishtiladi. "Nurobot" gaz taqsimlash shoxobchasiда 5 kW hamda Samarcand magistral gaz quvurlari boshqarmasi sanoat maydonida 10 kWli, jami 28 kWli quyosh panelari o'rnatalib, yil boshidan buyon ushu obyektlarda 16 ming 24 kW bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi o'rnatishtiriladi.

Joriy yil yakuniga qadar Samarcand magistral gaz quvurlari boshqarmasi sanoat maydonida yana 30 kWli quyosh fotoelektr stansiyasi o'rnatalidi. 2024-yilda boshqarma obyektlarida jami 44 kW bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi o'rnatishtirilgan.

Shohruh SODIQOV,
Samarcand magistral gaz quvurlari
boshqarmasi yetakchi muhandisi.

T

"SAMARQANDDONMAHSULOTLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Samarqanddonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 11-sentabr kuni (du-shanba kuni) saat 10:00 da Samarqand shahri Ziyokorlar ko'chasi, 4-uy manzilida joylashgan jamiyat majlislar zalida o'tkazilishini ma'lum qiladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBIDA:

1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamenti tasdiqlash;

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanog komissiyasi soni va shaxsiy tarkibini saylash;

3. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish hamda yig'ilish o'tka-

zilishi haqida xabarnoma olish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2023-yil 21-avgustga va umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2023-yil 5-sentabr kuniga belgilandi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishi da ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ma'lumot va materiallar bilan "Samarqanddonmahsulotlari" AJ da ushbu xabar e'lon qilingan kundan boshlab yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 8:00 dan 10:00 gacha tanishish mumkin.

Murojaat uchun telefon: +99866-239-55-04.

Jamiyatning rasmiy veb-sayti:
www.samdon.uz

Elektron pochta manzili:
samarqanddon@umail.uz

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

UMUMIY YIG'ILISH O'TKAZISH SANASI O'ZGARDI!

Urgut tumanidagi "URGUT SAVDO KOMPLEksi" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 21-avgust kuni saat 10:00 da "URGUT SAVDO KOMPLEksi" mas'uliyati cheklangan jamiyati ma'muriy binosida o'tka-zilishi rejorashtirilgan edi.

Umumi yig'ilish kun tartibiga qo'yilgan "URGUT SAVDO KOMPLEksi" mas'uliyati cheklangan jamiyati yangilangan nizomini tasdiqlash borasida loyihasi o'rganilayotganligi sababli jamiyat kuzatuv kengashi va jamiyat ta'sischilarining umumiy yig'ilishi boshqa kunga qoldirilmoqda.

"URGUT SAVDO KOMPLEksi" MCHJ KUZATUV KENGASHI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Umarova Mavlyuda Mahmajanovnaga (2023-yil 16-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdurahmonov Elyor Jamshidovich notarial idorasida marhum Djalalova Roxila Faxriyevnaga (2017-yil 4-aprelida vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Ishixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xaliquov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasida marhum Mamaraximov Xoldor Primovichga (2022-yil 28-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xaliquov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Ishixon shaharchasi Ishtixon ko'chasi, 20-uy.

BEKOR QILINADI

Past Darg'om tumanidagi "TOLMASOBOD G'OLIB" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 303115580) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

↓ “Samarqand muzeyi durdonalari” turkumidan

Bugungi kunda Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ekspozitsiyalaridan o‘rin olgan Qoratepa stupasi eski Termizing shinolgi-sharqiyo qismida joylashgan Qoratepa yodgorligidan topilgan. U Kushonlar imperiyasining Markaziy Osiyodagi birinchi buddaviylik yodgorligi bo‘lib, Qoratepa yodgorligining shinolgi tomonida joylashgan ibodatxonasi majmuasida aniqlangan.

QORATEPA STUPASI

Yodgorlik 1980-1981-yillarda B.Staviskiy rahbarligida eski Termiz yaqinidagi qadimiy Baqtriya yodgorliklari tadqiq qilinishi davomida aniqlangan. Stupaning qurilishi milodi I asrda boshnab, II-III asrlarga kelib, to‘liq bitkazilgan. Shunga ko‘ra, uning paydo bo‘lishini olimlar milodning II-IV asrlariga oid deb hisoblaydi.

Sanskrit tilida “stupa” so‘zi tuproq yoki toshlar degan ma’noni anglatadi. Stupa usti gumbazsimon qilib ishlaniib, unga yog‘och yoki toshdan yasalgan langar o‘rnatalgan. Bu langarlarda toshdan yasalgan bir nechta soyabon bo‘lgan. Buddaviyalar uni ushbu dinnings muqaddas daraxt timsoli bo‘lgan “chatra” nomi bilan atashgan. Stupalarni o‘rnatishning bu usulni O‘rta Osiyonning deyarli barcha hududlarida qo‘llanilgan. Stupa tepeasida Buddha, odamlar, hayvonlar, o‘sma dinning muqaddas ramzlarini tasvirlangan.

Silindr shaklida yasalgan mazkur inshoot muzeysi fondiga 1986-yilda 4 ta bo‘lakdan iborat holatda olib kelgingan. Bizgacha faqat uning nilufar gul shaklidagi pastki qismi yetib kelgan bo‘lib, unda turli ko‘rinishdagi bezaklari, ba’zi joylarida qizil rangdagi yozuv izlari saqlanib qolgan.



Stupaning diametri 1,5 metr o‘lchamda bo‘lib, uning tayoq va soyabonlari saqlanib qolmagan. Mazkur inshootning Markaziy Osiyoda bunyod etilishi, u bilan bog‘liq marosimlarning kirib kelishi kushonlar imperiyasi davrida O‘rta Osiyo xalqlarining boshqa davlatlar bilan madaniy aloqalarini keng ko‘lamda olib borilganligini ko‘rsatadi. Buddizmning Hindistondan tashqari hududlarga tarqalishi natijasida ushbu dinga aloqador marosimlar, inshootning qurilishi ham boshqa hududlarga yoyiladi.

Samarqand muzey-qo‘riqxonasida saqlanayotgan Qoratepa stupasi yurtimiz tarixi, xususan, Kushon podsholigi davri madaniyatidan darak beradi.

Navbahor DALAYEVA,
Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi
katta ilmiy xodimi.


IT va robototexnika sohasida bir nechta startap loyihalarni muvaffaqiyatlari amalga oshirib, viloyat, respublika va xalqaro tanlovlardan g‘olib bo‘lgan Doston Ishanov Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilgan.

20 yoshli mutaxassis axborot texnologiyalari, robototexnika, mexatronika, sxemotexnika, dasturlash va 3D modellashtirish yo‘nalishlarida “Alko tester”, “Yuqori texnologiyalar muzeyi”, “Utility SS99 robot”, “Aqli hissa”, “Arm Robot”, “Gaz detektori”, “Gid robot”, “Robot lab”, “Suvosti roboti”, “I.B.K uz”, “Women Union” kabi yangi startap loyihalarni yaratib, jamoasi bilan ular ustida ishlamoqda.

Doston bilan o‘tgani yil suhbatlashganimizda IT sohasida yangi dasturlar va robototexnikaning yaratilmagan tiplarini ixtiro qilishni maqsad qilganimi aytgan edi. Ayni paytda Xitoydagi WUXI universitetining uchinchi bosqichida tahsil olayotgan yurdoshimiz xorijidagi hayot, o‘qishi va faoliyatidagi yangiliklar haqidagi fikrlari bilan o‘tqozlashdi.

Olti yildan buyon IT va robototexnika sohasida faoliyat olib boraman, - deydi Doston. – Ayni paytda WUXI universitetida kompyuter fanlari texnologiyasi (Compyuter Science Technology) yo‘nalishida grant asosida o‘qiyapman. Dastlab o‘qishni masofadan boshlagan bo‘lsam, endi shu yerda davom etiriyapman. Xitoya kelganimda meni yangi dunyo qarshi oldi. Sababi, bu yerda barcha narsalar elektronlashib ketgan. Hatto uy eshigini ochish uchun ham telefon yoki gadjetlardan foydalilanildi va kamdan kam hollarda naqd pul ishlataladi.

Talaba elektron qurilmalarni boshqaradigan mikrokontroller yaratmoqchi



to‘qqiz qavatlari kutubxonasi talabalar ixtiyorida. Xorijlik talabalar uchun alohida zamonaviy yotoqxonalar mavjud. Yotoqxonada marokashlik va amerikalik yoshlar bilan turaman.

Elektron qurilmalarda bo‘ladigan mikrokontrollerlarning yangi turini ishlab chiqarish va unga dastur kiritish bo‘yicha ish olib boryapman. Mikrokontroller elektron qurilmalarni boshqarishga mo‘ljallangan mikroxsHEMA bo‘lib, dunyoning 75 foiz mikrokontrollerlari Xitoyda ishlab chiqariladi. Bu qurilma kompyuter va robototexnikalarning ishlashtirishini ta’minlaydi. Boshqacha aytganda, elektron qurilmalarning miyasi hisoblanadi. Mana shunday qurilmaning yangi turini yaratib, O‘zbekistonda ham ilk bor joriy qilish niyatim bor.

Mikrokontrollerning eski turi Xitoy va Tayvanda ko‘p ishlab chiqarilgan. Bu qurilmalarning asosiy kamchiligi dasturiy ma‘lumotni qayta yuklashda bo‘lib, ma‘lumotlar o‘chib ketishi yoki qisman yuklanishi mumkin. O‘ylab ko‘ring, dunyoda ko‘plab katta kompaniya va korxonalar bor. Agar ularning faoliyatiga doir muhim ma‘lumotlar o‘chib ketasa yoki tiklanmasa, kasodga uchrashi va juda ko‘p zarar ko‘rishi mumkin. Elektron qurilmalarda mikrokontrollerlarning yangi turi yaratilib, o‘shimcha dastur kiritilsa, bu kabi muammolarga o‘rin qolmaydi.

F.RO‘ZIBOYEV.

ATIB
“IPAK YO‘LI BANKI”
SAMARQAND FILIALI

Qutlov va reklama

hamyurtlarimiz,
bank sohasida
mehnat qilayotgan
hamkasblar va
mijozlarini

ISTIQLOLIMIZNING

32
YILLIGI

bilan qutlaydi.



“URGUT SAVDO KOMPLEksi”

MAS’ULIYATI CHEKLANGAN
JAMIYATI JAMOASI



viloyatimiz ahlini eng ulug‘, eng aziz bayram –

MUSTAQILLIK KUNI

bilan tabriklaydi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 373 nusxada chop etildi. Buyurtma 452. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahfalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:

A.HAYDAROV.

Navbatchi:

G.MO‘MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling